

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 172 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNl	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	



INNOVATION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI



Aliyev Hasan Rayimjonovich

Z.M. Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
“University of economy and pedagogy” NOTM ilmiy bo‘lim xodimi

E-mail: xasanaliyev25@gmail.com

ORCID: 0009-0007-9695-2135

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalar bank faoliyatining mazmuni hamda uni tashkil etish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu sharoitda banklar alohida moliyaviy institut sifatida emas, balki fintech kompaniyalari, raqamli platformalar va texnologik xizmat ko'rsatuvchilar bilan o'zaro bog'langan integratsiyalashgan tizimlar sifatida rivojlanmoqda. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank ekotizimlarining shakllanishi ushbu transformatsiyaning muhim omili sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqot O'zbekiston bank sektori misolida olib borilib, raqamli bank xizmatlari rivojlanishining dinamikasi, bank–fintech hamkorliklarining kengayishi hamda API asosidagi integratsiyalarning amaliy natijalari o'rganiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion ekotizim yondashuvi bank xizmatlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirishi, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni soddalashtirishi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirishi aniqlangan. Olingan xulosalar bank tizimini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishda ekotizimga asoslangan yondashuvning strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsion bank ekotizimi, raqamli transformatsiya, fintech integratsiyasi, Open Banking, moliyaviy inklyuziya, O'zbekiston bank sektori.

Abstract. Digital technologies are fundamentally transforming the structure and operational logic of banking activities. In this context, banks are increasingly evolving not as isolated financial institutions, but as integrated systems interconnected with fintech companies, digital platforms, and technology service providers. This paper examines the formation of innovative banking ecosystems as a key driver of this transformation in commercial banking.

The study is conducted using the case of the Uzbek banking sector and analyzes the dynamics of digital banking services, the expansion of bank–fintech cooperation, and the practical outcomes of API-based integrations. The findings demonstrate that an ecosystem-based approach enhances the functional capabilities of banking services, simplifies customer interactions, and increases access to financial services. The results highlight the strategic importance of innovative banking ecosystems for the sustainable development and modernization of the banking system.

Keywords: innovative banking ecosystem, digital transformation, fintech integration, Open Banking, financial inclusion, Uzbekistan banking sector.

Аннотация. Цифровые технологии кардинально изменяют содержание и организационные механизмы банковской деятельности. В этих условиях банки все чаще развиваются не как изолированные финансовые институты, а как интегрированные системы, взаимосвязанные с финтех-компаниями, цифровыми платформами и технологическими провайдерами. В статье формирование инновационных банковских экосистем рассматривается как ключевой фактор данной трансформации в деятельности коммерческих банков.

Анализ проводится на примере банковского сектора Узбекистана и охватывает динамику развития цифровых банковских услуг, расширение сотрудничества между банками и финтех-компаниями, а также практические результаты API-интеграций. Полученные результаты свидетельствуют о том, что экосистемный подход расширяет функциональные возможности банковских услуг, упрощает взаимодействие с клиентами и повышает доступность финансовых сервисов. Сделанные выводы подчеркивают стратегическую значимость инновационных банковских экосистем для устойчивого развития и модернизации банковской системы.

Ключевые слова: инновационная банковская экосистема, цифровая трансформация, финтех-интеграция, открытый банкинг, финансовая инклюзия, банковский сектор Узбекистана.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank faoliyatining tashkil etilish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar va platformaviy yondashuvlarning izchil rivojlanishi banklarning nafaqat xizmat ko'rsatish uslublarini, balki biznes strategiyalarini ham sezilarli darajada yangilashiga olib kelmoqda. Banklar mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yangi formatda tashkil etib, xizmatlarni tezkor va moslashuvchan shaklda taqdim etishga bosqichma-bosqich o'tmoqda.

Natijada banklar faqat moliyaviy vositachi sifatidagi an'anaviy rol bilan cheklanib qolmay, ko'p tomonlama qiymat yaratuvchi integratsion tuzilma sifatida shakllanmoqda. Innovatsion bank ekotizimlari doirasida banklar fintech kompaniyalari, raqamli platformalar, texnologik provayderlar hamda regulyatorlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yib, yangi mahsulot va xizmatlarni tezkor joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Mazkur yondashuv xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlash, operatsion samaradorlikni oshirish hamda mijozlar tajribasini yaxshilashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Innovatsion bank ekotizimi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda banklar va ular bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi uzviy hamda o'zaro manfaatli hamkorlik tizimi sifatida talqin etiladi. Ushbu konsepsiya platforma iqtisodiyoti, ochiq innovatsiyalar hamda innovatsiyalar diffuziyasi nazariyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bank sektorida raqamli transformatsiyaning metodologik asosini tashkil etadi. Ekotizim yondashuvi banklarga bozor talablariga tez moslashish, innovatsion yechimlarni tezkor joriy etish hamda bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston bank sektorida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy va institutsional islohotlar innovatsion bank ekotizimlarining shakllanishi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratdi. Raqamli bank xizmatlari ulushining barqaror oshib borishi, fintech subyektlari bilan hamkorlikning kuchayishi, elektron to'lov infratuzilmasining kengayishi hamda Open Banking tamoyillarining bosqichma-bosqich joriy etilishi milliy bank tizimi transformatsiya jarayonida ekanini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ma'lumotlar almashinuvi standartlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, regulyatoriy moslashuvning nisbatan sekinligi hamda yuqori malakali IT kadrlar yetishmasligi innovatsion ekotizimlarning to'liq shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqot innovatsion bank ekotizimlarining mohiyatini ochib berish, ularning bank faoliyatiga amaliy ta'sirini tahlil qilish hamda O'zbekiston bank sektori sharoitida ushbu yondashuvning ahamiyatini baholashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari milliy bank tizimida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda ekotizimga asoslangan integratsion rivojlanish modelining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion bank ekotizimlari bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar ushbu tushunchaning shakllanish jarayonini biznes ekotizimi (Moore, 1993), platforma iqtisodiyoti (Gawer & Cusumano, 2014), ochiq innovatsiya (Chesbrough, 2003) hamda innovatsiya diffuziyasi (Rogers, 2003) nazariyalari orqali izohlaydi. Mazkur tadqiqotlarda banklar nafaqat moliyaviy vositachi, balki texnologik platforma va ko'p tomonlama qiymat yaratuvchi ekotizim markazi sifatida talqin etiladi. Puschmann (2017) hamda Zachariadis va Ozcan (2016) ilmiy izlanishlarida fintech-bank integratsiyasining raqobatbardoshlik, xizmatlar tezligi va operatsion samaradorlikka ta'siri alohida ta'kidlangan.



O'zbekistonda innovatsion bank ekotizimlari bo'yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A. Vahobov, O. Abdurahmonov, S. G'aniyev, J. Xodjayev, B. Tursunov, Sh. Mustafoqulov, D. Axmedov, M. Xudoyqulov kabi olimlar bank tizimini modernizatsiya qilish, raqamli moliya, fintech xizmatlari, bank risklarini boshqarish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini turli metodologik yondashuvlar asosida o'rgangan.

Vahobov va Abdurahmonovning 2018–2022-yillarda olib borgan ilmiy izlanishlarida bank tizimining raqamli iqtisodiyotga integratsiyasi, moliyaviy inklyuziya hamda innovatsion moliya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator takliflar ilgari surilgan. Tursunov va Mustafoqulov tadqiqotlarida banklarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bank samaradorligiga ta'siri, kredit risklarini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarish hamda fintech xizmatlarining milliy moliya bozoriga ta'siri yoritilgan.

Xudoyqulov va Axmedovlarning ilmiy ishlari to'lov tizimlari, raqamli platformalar, API iqtisodiyoti hamda elektron bank xizmatlari orqali bank ekotizimining shakllanish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan.

O'zbekistonda raqamli xizmatlar ulushining o'sishi, bank ilovalari sonining ko'payishi, fintech hamkorliklarining kuchayishi hamda to'lov infratuzilmasining kengayishi milliy bank ekotizimining shakllanish jarayonini jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar almashinuvi standartlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning moslashuvchanligi nisbatan sekinligi hamda IT yo'nalishida yuqori malakali kadrlar yetishmasligi kabi cheklovlar ham qayd etiladi.

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar innovatsion bank ekotizimlarining banklar faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchi qatlamni kengaytirish, platformaviy xizmatlarni rivojlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot innovatsion bank ekotizimlarining shakllanishi hamda ularning O'zbekiston bank sektoriga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil va empirik kuzatuv usullari o'zaro uyg'unlashtirildi. Nazariy tahlil doirasida innovatsion ekotizim, raqamli transformatsiya hamda platformaviy bank faoliyatiga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rganilib, asosiy konseptual yondashuvlar tizimlashtirildi.

Empirik qism Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari, raqamli to'lovlar va bank xizmatlari bo'yicha ochiq statistik ko'rsatkichlar asosida amalga oshirildi. Ushbu ma'lumotlar asosida raqamli bank xizmatlari ulushi, bank–fintech hamkorliklari hamda API asosidagi xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari dinamik tahlil qilindi. Olingan natijalar vaqt bo'yicha solishtirish va umumlashtirish usullari orqali baholanib, innovatsion bank ekotizimlarining amaliy samaradorligi yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda bank ekotizimining rivojlanish tendensiyalari raqamli xizmatlarning kengayishi va texnologik integratsiyalar orqali namoyon bo'lmoqda (1-rasm).



1-rasm. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish o'sishi (2015–2024)¹

1 Muallif ishlanmasi


Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ulushining yillik o'sish dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzatilgan davr davomida ushbu xizmatlardan foydalanish ko'lami bir necha barobar kengaygan bo'lib, mazkur jarayon texnologik infratuzilmaning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'sishning eng faol davri 2019–2023-yillarga to'g'ri kelib, bu holat mobil banking xizmatlarining ommalashuvi, elektron to'lov infratuzilmasining kengayishi hamda masofaviy identifikatsiya mexanizmlarining joriy etilishi bilan izohlanadi(2-rasm).



2-rasm. Bank-fintech integratsiyalari soni (2015–2024) ²

O'zbekiston banklari va fintech kompaniyalari o'rtasidagi integratsiyalar sonining o'sishi xizmatlar ko'lami va texnologik integratsiya darajasining oshishi bilan tavsiflanadi. Banklar va fintech subyektlari o'rtasidagi hamkorlikning kengayishi fintech xizmatlari bozorining faollashuvi, raqamli to'lovlarga bo'lgan talabning ortishi hamda API asosidagi hamkorlik mexanizmlarining shakllanishi bilan bog'liq.

Mazkur jarayon banklarning mustaqil institutdan ko'ra hamkorlikka asoslangan integratsion modelga o'tayotganini ko'rsatadi. Banklar endilikda faqat mustaqil moliyaviy institut sifatida emas, balki fintech subyektlari bilan integratsiya orqali xizmat tarmog'ini kengaytiruvchi ekotizim ishtirokchisi sifatida shakllanmoqda(3-rasm).



3-rasm. API asosidagi xizmatlarning kengayishi (2015–2024) ³

2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi



Banklarning API asosida taklif etayotgan raqamli xizmatlar sonining oshishi banklar va fintech subyektlari o'rtasida xizmatlar almashinuvini tezlashtirib, ekotizim doirasida yangi raqamli mahsulotlar shakllanishiga imkon yaratmoqda. API asosidagi xizmatlar rivoji dastlab sekin kechgan bo'lsa-da, keyingi yillarda texnologik ochiqlik va integratsiyalarning kuchayishi hisobiga sezilarli darajada jadallashdi.

API xizmatlarining bunday o'sishi Open Banking infratuzilmasining shakllanayotganini, banklarning ochiqlik siyosatini qabul qilayotganini hamda fintech subyektlari bilan texnik integratsiya chuqurlashayotganini ko'rsatadi. Bu holat ekotizim doirasidagi xizmatlar diversifikatsiyasining sezilarli darajada kengayganligini anglatadi.

Bank ekotizimlari rivojlanishining tahlili

Olingan natijalar bank ekotizimlarining rivojlanish yo'nalishlarini quyidagi jihatlar orqali tahlil qilish imkonini beradi:

1. Ekotizimning texnologik asosi mustahkamlanmoqda, raqamli xizmatlar ulushining 71 % ga yetishi ekotizim doirasida texnologik transformatsiya jarayoni to'liq boshlanganining yaqqol dalilidir.

2. Hamkorlik modeli an'anaviy bank faoliyatidan ustunlashmoqda, bank–fintech integratsiyalarining 46 taga yetishi bozor munosabatlarining "raqobat" modelidan "hamkorlik" modeliga o'tayotganini ko'rsatadi.

3. API iqtisodiyoti ekotizimning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda, API xizmatlari Open Banking uchun fundamental poydevor bo'lib xizmat qilmoqda va ekotizimning barqaror kengayishini ta'minlamoqda.

4. Moliyaviy inkluziya sezilarli darajada oshmoqda, ilmiy tahlil asosida ko'rib chiqilgan grafik ma'lumotlar mijozlarning raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganini tasdiqlaydi, bu esa ekotizimning muhim ijtimoiy funksiyasini namoyon etadi.

5. Regulyatoriy moslashuvchanlik natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda, sandbox mexanizmlari, litsenziyalash jarayonlarining soddalashtirilishi hamda to'lov tizimi standartlarining takomillashuvi yuqoridagi o'sish ko'rsatkichlarining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank ekotizimlarining shakllanishi izchil va tizimli jarayon ekanini ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida banklar an'anaviy moliyaviy vositachi doirasidan chiqib, fintech kompaniyalari, raqamli platformalar hamda texnologik provayderlar bilan integratsiyalashgan hamkorlik modeliga o'tmoqda. Ushbu jarayon bank xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarining mazmunan yangilanishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari innovatsion bank ekotizimlari bank xizmatlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirishi, operatsion jarayonlarni soddalashtirishi hamda mijozlar bilan o'zaro aloqalarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va bank–fintech hamkorliklarining kengayishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining oshishiga hamda bank tizimi faoliyatining moslashuvchanligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, innovatsion bank ekotizimlarining to'liq va barqaror shakllanishiga ta'sir ko'rsatayotgan ayrim institutsional va texnologik cheklovlar ham aniqlanmoqda. Ushbu cheklovlar, asosan, ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha yagona standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, regulyatoriy moslashuv jarayonlarining nisbatan sekin kechishi hamda raqamli texnologiyalar sohasida malakali kadrlar tanqisligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, innovatsion bank ekotizimlarini rivojlantirish O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida olingan xulosalar bank tizimida ekotizimga asoslangan yondashuvni baholash va uni amaliy jihatdan takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Moore, J. F. (1993). Predators and prey: A new ecology of competition. *Harvard Business Review*, 71(3), 75–86.
2. Gawer, A., & Cusumano, M. A. (2014). Industry platforms and ecosystem innovation. *Journal of Product Innovation Management*, 31(3), 417–433.
3. Chesbrough, H. (2003). *Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology*. Boston: Harvard Business School Press.
4. Rogers, E. M. (2003). *Diffusion of Innovations* (5th ed.). New York: Free Press.
5. Puschmann, T. (2017). Fintech. *Business & Information Systems Engineering*, 59(1), 69–76.
6. Zachariadis, M., & Ozcan, P. (2016). The API economy and digital transformation in financial services. *SWIFT Institute Working Paper*.
7. Arner, D. W., Barberis, J. N., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of fintech: A new post-crisis paradigm? *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), 1271–1319.



8. World Bank Group. (2022). Digital Financial Inclusion. – URL: <https://www.worldbank.org> (murojaat sanasi: 15-01-2026).
9. OECD. (2021). Digital Transformation in Financial Markets. – URL: <https://www.oecd.org> (murojaat sanasi: 15-01-2026).
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Raqamli moliya va to'lov tizimlari bo'yicha rasmiy hisobotlar. – URL: <https://www.cbu.uz> (murojaat sanasi: 15-01-2026).
11. Abdullayev, O. O. (2020). Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya tizimini rivojlantirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 4-son.
12. Xolmuradov, B. E. (2021). Fintex xizmatlarining bank tizimiga ta'siri va rivojlanish istiqbollari. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, 2-son, 45–50.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100